EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA .....	1461
<b>Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li</b>	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	1467
<b>Рустамов Фозилжон</b>	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH .....	1475
<b>Jumayev Olimjon Sadulloevich</b>	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI .....	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN .....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI .....	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI .....	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI .....	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI.....	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH .....	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI .....	1585
<b>Azizov Shuxrat Maxmutovich</b>	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
<b>Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich</b>	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI .....	1597
<b>Madaminov Damir Abduraxmanovich</b>	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА .....	1602
<b>Султанова Л.Ш.</b>	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1607
<b>Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
<b>Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich</b>	
“YASHIL” IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
<b>Rustamov Narzillo Istamovich</b>	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
<b>Mullajonova Fotima Tuychibayevna</b>	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	1627
<b>He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.</b>	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
<b>Тураева Сурия</b>	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI .....	1641
<b>N. Tursunov</b>	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
<b>Садий Шукрилло Асатилло угли</b>	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ .....	1653
<b>Qian Xuanhong, Вохидова Мехри</b>	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
<b>Xolmuratov Salimbek Eshbekovich</b>	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	1663
<b>Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira</b>	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
<b>Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
<b>S. Sayfullayev</b>	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILY JIHATLARI .....	1675
<b>Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi</b>	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
<b>Babaeva Nargiza Muzafarovna</b>	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIVAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIVAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI.....	1686
<b>Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich</b>	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI .....	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI .....	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI .....	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMI TAHLILI .....	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МИСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I - MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI .....	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH .....	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI .....	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI .....	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN .....	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI .....	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ .....	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўгли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўгли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI .....	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI .....	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кошанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: HORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI .....	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ .....	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI .....	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI .....	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G‘ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA‘SIRLAR.....	1925
G‘ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA‘SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o‘g‘li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO‘JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARINING KUHLANGANLIK-DEFORMATSİYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSİYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA‘MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSİYASI STRATEGIYALARINING O‘RNI.....	1976
Tursunxo‘jayev Axrorxo‘ja Jamoliddin o‘g‘li	



# KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNINI

**Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li**

TDIU, Biznes boshqaruvi kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [tursunxojayevaxrorxoja@gmail.com](mailto:tursunxojayevaxrorxoja@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxonalarining raqobat ustunligini shakllantirish va mustahkamlashda bozor segmentatsiyasi strategiyalarining roli chuqur tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida segmentatsiya, maqsadli bozorni tanlash va pozitsiyalashtirish (STP) modelining nazariy asoslari o'rganilgan hamda M. Porterning umumiy raqobat strategiyalari bilan integratsiyasi ko'rib chiqilgan. Empirik ma'lumotlar asosida bozor segmentatsiyasining korxonalar samaradorligiga ta'siri baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, segmentatsiya strategiyalarini samarali qo'llagan korxonalar daromadni 10-15 foizga oshirish, mijozlarni jalb qilish xarajatlarini 50 foizgacha kamaytirish va marketing investitsiyalari rentabelligini 30 foizgacha yaxshilash imkoniyatiga ega. Maqolada O'zbekiston bozori sharoitida kichik va o'rta biznes subyektlari uchun segmentatsiya strategiyalarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** bozor segmentatsiyasi, raqobat ustunligi, STP modeli, maqsadli marketing, pozitsiyalashtirish, strategik boshqaruv, differentsiatsiya, Porter strategiyalari, kichik va o'rta biznes, O'zbekiston.

**Abstract.** This article provides an in-depth analysis of the role of market segmentation strategies in building and strengthening firms' competitive advantage. The study explores the theoretical foundations of the STP model (Segmentation, Targeting, and Positioning) and its integration with M. Porter's generic competitive strategies. Based on empirical data, the impact of market segmentation on firm performance has been evaluated.

The findings reveal that companies effectively implementing segmentation strategies can increase revenue by 10–15%, reduce customer acquisition costs by up to 50%, and improve marketing investment returns by up to 30%. The article also presents practical recommendations for implementing segmentation strategies for small and medium-sized enterprises (SMEs) under the conditions of the Uzbek market.

**Key words:** market segmentation, competitive advantage, STP model, target marketing, positioning, strategic management, differentiation, Porter's strategies, small and medium enterprises, Uzbekistan.

**Аннотация.** В данной статье глубоко проанализирована роль стратегий сегментации рынка в формировании и укреплении конкурентных преимуществ предприятий. В рамках исследования изучены теоретические основы модели STP (сегментация, выбор целевого рынка и позиционирование), а также рассмотрена её интеграция с общими конкурентными стратегиями М. Портера. На основе эмпирических данных оценено влияние рыночной сегментации на эффективность деятельности предприятия.

Результаты исследования показывают, что компании, эффективно применяющие стратегии сегментации, способны увеличить прибыль на 10–15%, сократить затраты на привлечение клиентов до 50% и повысить рентабельность маркетинговых инвестиций до 30%. В статье разработаны практические рекомендации по внедрению стратегий сегментации для субъектов малого и среднего бизнеса в условиях рынка Узбекистана.

**Ключевые слова:** сегментация рынка, конкурентное преимущество, модель STP, целевой маркетинг, позиционирование, стратегическое управление, дифференциация, стратегии Портера, малый и средний бизнес, Узбекистан.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarining bozorda barqaror mavqeyini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirish ularning strategik boshqaruv sifatiga bevosita bog'liq. Globallashtirish jarayonlari, texnologik o'zgarishlar va iste'molchilar talablarining murakkablashuvi korxonalardan yanada moslashuvchan va samarali marketing yondashuvlarini talab etmoqda. Bozor segmentatsiyasi ushbu kontekstda korxonaning raqobat ustunligini shakllantirishning asosiy strategik vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.



Bozor segmentatsiyasi — bu keng bozorni umumiy ehtiyojlar, xususiyatlar yoki xulq-atvor namunalari ega bo'lgan kichikroq, aniq belgilangan iste'molchilar guruhlariga bo'lish jarayonidir [1]. Ushbu strategik yondashuv korxonalariga resurslarni samarali taqsimlash, maqsadli auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatish va raqobatchilardan farqlanish imkoniyatini beradi. Hunt va Arnett [2] ta'kidlaganidek, bozor segmentatsiyasi marketing nazariyasida eng keng qabul qilingan konsepsiyalardan biri bo'lib, uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, raqobat ustunligiga erishish va moliyaviy samaradorlikni oshirish uchun korxonalar talab segmentlarini aniqlashi, maqsadli segmentlarni tanlashi va har bir maqsadli bozor segmenti uchun maxsus marketing aralashmasini ishlab chiqishi lozim.

McKinsey tadqiqotlariga ko'ra, shaxsiylashtirilgan marketing strategiyalari mijozlarni jalb qilish xarajatlarini 50 foizgacha kamaytirishi, daromadni 5-15 foizga oshirishi va marketing investitsiyalari rentabelligini 10-30 foizga yaxshilashi mumkin [3]. Bundan tashqari, 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, kompaniyalarning 92 foizi shaxsiylashtirilgan marketing uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanmoqda [4]. Ushbu statistik ko'rsatkichlar bozor segmentatsiyasining amaliy ahamiyatini yaqqol namoyish etadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti kontekstida kichik va o'rta biznes subyektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining 50 foizini shakllantiradi [5]. Biroq, kuchli raqobat muhitida ushbu korxonalar brend tanilishini shakllantirish, mijozlarni jalb qilish va moliyaviy ko'rsatkichlarni optimallashtirish borasida jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi — bozor segmentatsiyasi strategiyalarining korxonalar raqobat ustunligini ta'minlashdagi rolini nazariy va empirik jihatdan asoslash hamda O'zbekiston bozori sharoitida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

### Bozor segmentatsiyasining nazariy asoslari

Bozor segmentatsiyasi konsepsiyasi XX asrning o'rtalarida marketing fanida shakllana boshlagan bo'lib, Wendell Smith (1956) tomonidan birinchi marta ilmiy asoslangan. Zamonaviy marketing nazariyasida segmentatsiya-maqsadli bozor-pozitsiyalashtirish (Segmentation-Targeting-Positioning, STP) modeli asosiy strategik asos sifatida e'tirof etiladi [6]. STP modeli marketing kommunikatsiyalarida samarali va maqsadga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlaydi, bu esa korxonalariga turli auditoriya segmentlari bilan o'zaro aloqani mustahkamlash, konversiyani oshirish va mijozlarni jalb qilish imkonini beradi [7].

Bozor segmentatsiyasining to'rtta asosiy turi farqlanadi: demografik, geografik, psixografik va xulq-atvoriga asoslangan segmentatsiya [8]. Demografik segmentatsiya iste'molchilarni yosh, jins, daromad darajasi, ta'lim va oilaviy ahvol bo'yicha guruhlaydi. Geografik segmentatsiya joylashuv, iqlim va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga oladi. Psixografik segmentatsiya qadriyatlar, hayot tarzi, qiziqishlar va shaxsiy xususiyatlar asosida amalga oshiriladi. Xulq-atvoriga asoslangan segmentatsiya esa xarid qilish odatlari, brend sadoqati va mahsulotdan foydalanish intensivligini o'z ichiga oladi [9].

Freytag va Clarke [10] ta'kidlashicha, segmentatsiya jarayoni kontekstga va maqsadga bog'liq bo'lib, u strategik yoki operatsion xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mora Cortez va hammuallif [11] esa segmentatsiya natijalarini jarayon (masalan, koordinatsiya) va samaradorlik (masalan, sotuvlar) ko'rsatkichlari orqali baholash zarurligini asoslagan. Ularning empirik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ba'zi segmentatsiya o'zgaruvchilari bu natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa maqsadli auditoriyani tanlash tartiblarining moderator rolini ochib beradi.

### Porter raqobat strategiyalari va segmentatsiya integratsiyasi

Michael Porter (1980, 1985) tomonidan ishlab chiqilgan umumiy raqobat strategiyalari korxonalarining bozorda ustunlik qozonishida asosiy yo'nalishlarni belgilaydi. Porter uchta asosiy strategiyani ajratadi: xarajatlar yetakchiligi, differentsiatsiya va fokuslanish (nish strategiyasi) [12]. Xarajatlar yetakchiligi strategiyasi korxonaning sanoatda eng past tannarxga ega ishlab chiqaruvchi bo'lishini nazarda tutadi. Differentsiatsiya strategiyasi esa mijozlar tomonidan qadrlanadigan o'ziga xos mahsulot yoki xizmatlarni yaratishga qaratilgan. Fokuslanish strategiyasi muayyan bozor segmentiga e'tibor qaratish orqali tor miqyosda xarajatlar ustunligi yoki differentsiatsiyaga erishishni ko'zda tutadi [13].

Hunt va Arnett [2] resurs-ustunlik nazariyasining bozor segmentatsiyasi strategiyasi uchun nazariy asos bo'la olishini asosladilar. Ularning fikricha, segmentatsiya strategiyasini asoslovchi nazariya quyidagi mezonlarga javob berishi lozim: talab heterogenligi mavjudligini ta'minlash, korxonalarining turli xil bozor takliflarini ishlab chiqarishi va sotishini asoslash, hamda segmentatsiya strategiyasining raqobat ustunligiga olib kelishi mexanizmini tushuntirish. Resurs-ustunlik nazariyasi raqobatning jarayon nazariyasi sifatida ushbu mezonlarga to'liq javob beradi.

Pulaj va boshqalar [14] tomonidan o'tkazilgan empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fokuslanish strategiyasini qo'llash korxonalar samaradorligini 31,5 foizga oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, fokuslanish strategiyasini 1 foizga ko'proq qo'llash, boshqa omillar o'zgarmasdan qolsa, korxonalar samaradorligini 31,5 foizga oshiradi. Bu natijalar bozor segmentatsiyasi va fokuslanish strategiyasi o'rtasidagi kuchli bog'liqlikni tasdiqlaydi.



Sun'iy intellekt va zamonaviy segmentatsiya yondashuvlari

Raqamlashtirish jarayonlari segmentatsiya metodologiyasini tubdan o'zgartirmoqda. Sun'iy intellekt (AI) va mashina o'rganish texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, yashirin namunalarni aniqlash va real vaqt rejimida segmentlarni yangilash imkonini beradi [15]. AI asosidagi mijozlar segmentatsiyasi bozori 2024-yilda 4,5 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2033-yilgacha yillik 12,2 foiz o'sish sur'ati prognoz qilinmoqda [16].

Giper-segmentatsiya kontsepsiyasi an'anaviy segmentatsiyadan farqli o'laroq, individual darajadagi moslashtirishni ta'minlaydi. Cap Gemini ta'rifiga ko'ra, giper-segmentatsiya — bu takliflar, kontent va mijoz tajribalarini individual darajada ilg'or va real vaqt rejimida moslashtirish [17]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, segmentatsiyalangan kompaniyalar kompaniyalar daromadini 760 foizgacha oshirishi mumkin [18]. Harvard Professional tadqiqotlari esa AI yordamida auditoriyani segmentatsiyalash va paydo bo'layotgan imkoniyatlarni aniqlash orqali korxonalar samaraliroq maqsadli strategiyalar ishlab chiqishi mumkinligini ta'kidlaydi [19].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda aralash metodologik yondashuv qo'llanilgan bo'lib, u nazariy tahlil va empirik ma'lumotlarni sintez qilishni o'z ichiga oladi. Tadqiqot quyidagi bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqich: Nazariy bazani shakllantirish. Bozor segmentatsiyasi, raqobat strategiyalari va ularning integratsiyasiga oid ilmiy adabiyotlar sistemali tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqich: Empirik ma'lumotlarni to'plash va tahlil. Xalqaro konsalting kompaniyalari (McKinsey, Bain, BCG) hisobotlari, Jahon banki statistikasi, O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari va sohaviy tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. Kontent-tahlil usuli yordamida segmentatsiya strategiyalarining korxonalar samaradorligiga ta'siri baholandi.

Uchinchi bosqich: Miqdoriy ko'rsatkichlarni taqqoslash. Turli manbalardagi statistik ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi. Segmentatsiyaning daromadga ta'siri, marketing investitsiyalari rentabelligi (ROI) va mijozlarni jalb qilish xarajatlariga ta'siri bo'yicha ko'rsatkichlar jamlandi.

To'rtinchi bosqich: Konseptual modelni shakllantirish. Nazariy bilimlar va empirik natijalar asosida bozor segmentatsiyasi va raqobat ustunligi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi konseptual model ishlab chiqildi. Model STP yondashuvini Porter raqobat strategiyalari bilan integratsiyalashni nazarda tutadi.

Tadqiqotning cheklavlari sifatida ikkilamchi ma'lumotlarga tayanish va O'zbekiston bozori bo'yicha maxsus empirik tadqiqotlarning cheklanganligi ko'rsatilishi mumkin. Kelgusida birlamchi ma'lumotlar yig'ish orqali natijalarni validatsiya qilish tavsiya etiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor segmentatsiyasining moliyaviy samaradorlikka ta'siri

Empirik ma'lumotlar tahlili bozor segmentatsiyasining korxonalar moliyaviy ko'rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. McKinsey tadqiqotlariga ko'ra, shaxsiylashtirilgan marketing strategiyalarini qo'llagan korxonalar quyidagi natijalarga erishgan [3]: mijozlarni jalb qilish xarajatlari 50 foizgacha kamaygan; daromad 5-15 foizga oshgan; marketing investitsiyalari rentabelligi 10-30 foizga yaxshilangan. Bu ko'rsatkichlar an'anaviy, segmentatsiyalanmagan marketing yondashuvlari bilan solishtirganda sezilarli farqni namoyish etadi.

Adobe tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, marketologlarning 89 foizi shaxsiylashtirish strategiyalaridan ijobiy ROI olganini ta'kidlagan [4]. Bundan tashqari, ilg'or shaxsiylashtirish vositalaridan foydalanadigan korxonalar har bir sarflangan 1 dollarga nisbatan 20 dollar qaytim olgan. Hatto oddiy shaxsiylashtirish vositalari ham o'rtacha 500-800 foiz ROI o'sishini ta'minlagan [20].

1-jadvalda turli segmentatsiya strategiyalarining moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'siri keltirilgan. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, segmentatsiyalangan kompaniyalar segmentatsiyalanmagan kompaniyalarga nisbatan barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlik namoyish etadi.

1-jadval. Bozor segmentatsiyasining moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'siri<sup>1</sup>

Ko'rsatkich	Segmentatsiyasiz	Segmentatsiya bilan
Marketing ROI o'sishi	Bazis daraja	+10-30%
Daromad o'sishi	Bazis daraja	+5-15%
Mijoz jalb qilish xarajati	Bazis daraja	-50% gacha
E-mail kampaniyasi konversiyasi	Bazis daraja	+46% ochilish
Tranzaksiya darajasi	Bazis daraja	+600%


1 Manba: McKinsey, Adobe, Epsilon tadqiqotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [3], [4], [20]



Segmentatsiya strategiyalari va raqobat ustunligi integratsiyasi

Bozor segmentatsiyasi va Porter raqobat strategiyalari o'rtasidagi integratsiya korxonaning raqobat ustunligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 1-rasmda ushbu integratsiya konseptual modeli keltirilgan.

**BOZOR SEGMENTATSIYASI VA RAQOBAT USTUNLIGI INTEGRATSIYA MODEL**



Manba: Hunt va Arnett (2004), Porter (1985), McKinsey (2023) asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

1-rasm. Bozor segmentatsiyasi va raqobat ustunligi integratsiya modeli[2],[3],[12].


Model to'rtta asosiy komponentni o'z ichiga oladi. Birinchi komponent — STP jarayoni bo'lib, u segmentatsiyadan (bozorni guruhlariga bo'lish), maqsadli bozorni tanlashdan (eng jozibador segmentlarni aniqlash) va pozitsiyalashtirishdan (noyob qiymat taklifini shakllantirish) iborat. Ikkinchi komponent — Porter strategiyalari bo'lib, korxonaga tanlangan segmentda xarajatlar yetakchiligi, differensiatsiya yoki fokuslanish strategiyalaridan birini qo'llaydi. Uchinchi komponent — raqobat ustunligi bo'lib, u past xarajatlar yoki noyob differensiatsiya orqali namoyon bo'ladi. To'rtinchi komponent — moliyaviy natijalar bo'lib, yuqori daromad, yuqori rentabellik va bozor ulushining o'sishini o'z ichiga oladi.

Arnett [1] ta'kidlaganidek, raqobatchini aniqlash samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun muhim vazifa hisoblanadi. Biroq, strateglar orasida raqobatchini nima deb aniqlash borasida turli talqinlar mavjud. Segmentatsiya strategiyasi bu muammoni hal qilishga yordam beradi, chunki u korxonaga muayyan segmentdagi raqobatchilarni aniq aniqlash va ularga nisbatan ustunlik qozonish imkonini beradi.

Raqamli transformatsiya va segmentatsiya tendentsiyalari

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bozor segmentatsiyasi amaliyotini tubdan o'zgartirmoqda. 2-rasmda global AI asosidagi mijozlar segmentatsiyasi bozorining o'sish dinamikasi keltirilgan.

**AI ASOSIDAGI MIJOZLAR SEGMENTATSIYASI BOZORI HAJMI**  
(milliard AQSh dollari, 2024-2033)



Manba: Consal Insights (2024), "AI in Customer Segmentation Market Report"

2-rasm. AI asosidagi mijozlar segmentatsiyasi bozori hajmi[16] (mlrd AQSh dollari)



ConsalInsights ma'lumotlariga ko'ra, AI asosidagi mijozlar segmentatsiyasi bozori 2024-yilda 4,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2033-yilgacha yillik 12,2 foiz o'sish sur'ati bilan kengayishi kutilmoqda [16]. Bu o'sish korxonalarining shaxsiylashtirilgan mijoz tajribalari va ma'lumotlarga asoslangan marketing strategiyalariga bo'lgan talabining ortishi bilan bog'liq.

Shimoliy Amerika mintaqasi AI segmentatsiya texnologiyalarini qabul qilishda yetakchi o'rinni egallaydi — 2024-yilda 1,63 milliard dollarlik bozor hajmi 2033-yilgacha 4,82 milliard dollarga yetishi kutilmoqda [16]. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi esa eng tez o'suvchi bozor sifatida namoyon bo'lmoqda, bu esa raqamli transformatsiya tashabbuslarining kuchayishi bilan bog'liq.

#### SHAXSIYLASHTIRILGAN MARKETING SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARI

(global tadqiqotlar natijalari, 2023-2024)



Manba: McKinsey (2023), Adobe (2024), Epsilon (2024), DemandSage (2024)

3-rasm. Shaxsiylashtirilgan marketing samaradorligi ko'rsatkichlari[3],[4],[20].

Harvard Professional tadqiqotlariga ko'ra, AI yordamida korxonalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi [19]: katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish orqali iste'molchi xulq-atvoriga chuqurroq tushuncha olish; keng demografik ko'rsatkichlardan tashqari aniqroq va amaliy ma'lumotlarni olish; paydo bo'layotgan tendentsiyalarni bashorat qilish va xabarlarni real vaqt rejimida moslashtirish. Marketing AI Institute 2024-yildagi hisobotiga ko'ra, marketing mutaxassislari orasida AI qabul qilish tezlashmoqda — ko'pchilik kundalik ish jarayonlarida raqamli vositalarda AI dan foydalanishini ta'kidlagan.

O'zbekiston kontekstida segmentatsiya strategiyalari

O'zbekiston iqtisodiyoti jadal o'sish bosqichida bo'lib, kichik va o'rta biznes subyektlari mamlakat YaIMining 50 foizini shakllantiradi [5]. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2024-yilda 20,7 foizga tushgan bo'lib, bu ish haqi o'sishi va uy xo'jaliklari daromadlarining ortishi bilan bog'liq [21]. 2025-yilda YaIM o'sishi 6,2 foiz darajasida prognoz qilinmoqda.

O'zbekiston raqamli muhiti sezilarli rivojlanishni boshidan kechirmoqda. Jahon banki 2023-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, aholi orasida internetdan foydalanuvchilar ulushi 89 foizni tashkil etgan [22]. Mobil texnologiyalar esa yanada muhimroq rol o'ynaydi — mobil aloqa qamrovi aholining 93 foizini tashkil etadi, mobil qurilmalarga egalik darajasi esa 60,55 foizni tashkil etadi [22]. Bu ko'rsatkichlar raqamli segmentatsiya strategiyalarini joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Khilola va Jibril [5] tomonidan O'zbekistondagi KOMlar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, marketing aralashmasi elementlarini integratsiyalash korxonalariga marketing sa'y-harakatlarini yaxshilash, brend sadoqatini mustahkamlash va raqobat ustunligini qo'lga kiritish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari mahsulot, narx, joy, rag'batlantirish, xodimlar, jarayon va jismoniy dalillar elementlari KOM rivojlanishi bilan statistik jihatdan ahamiyatli korrelyatsiyaga ega ekanligini ko'rsatgan.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot bozor segmentatsiyasi strategiyalarining korxonalar uchun raqobat ustunligini ta'minlashdagi rolini nazariy va empirik jihatdan tahlil qildi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchiidan, bozor segmentatsiyasi korxonaning strategik boshqaruv tizimida markaziy o'rin tutadi. STP modeli (segmentatsiya-maqсадli bozor-pozitsiyalashtirish) korxonalar uchun maqsadli auditoriyani aniq aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash va raqobatchilardan farqlanish imkonini beradi. Hunt va Arnett tomonidan taklif etilgan resurs-ustunlik nazariyasi segmentatsiya strategiyasi uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.



Ikkinchidan, empirik ma'lumotlar segmentatsiyaning moliyaviy samaradorlikka sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Segmentatsiyalangan marketing strategiyalarini qo'llagan korxonalar daromadni 5-15 foizga oshirish, mijozlarni jalb qilish xarajatlarini 50 foizgacha kamaytirish va marketing ROI ni 10-30 foizga yaxshilash imkoniyatiga ega. Marketologlarning 89 foizi shaxsiylashtirish strategiyalaridan ijobiy qaytim olganini ta'kidlagan.

Uchinchidan, sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalari segmentatsiya metodologiyasini tubdan o'zgartirmoqda. AI asosidagi mijozlar segmentatsiyasi bozori 2024-yilda 4,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2033-yilgacha yillik 12,2 foiz o'sish sur'ati bilan kengayishi kutilmoqda. Kompaniyalarning 92 foizi shaxsiylashtirilgan marketing uchun AI texnologiyalaridan foydalanmoqda.

To'rtinchidan, Porter raqobat strategiyalari va bozor segmentatsiyasi o'rtasidagi integratsiya korxonaning raqobat ustunligini mustahkamlaydi. Fokuslanish strategiyasini qo'llash korxonalar samaradorligini 31,5 foizga oshirishi empirik tadqiqotlar tomonidan tasdiqlangan. Segmentatsiya korxonalarga muayyan bozor segmentida xarajatlar yetakchiligi yoki differentsiatsiya strategiyalarini samarali qo'llash imkonini beradi.

O'zbekiston bozori uchun amaliy tavsiyalar:

1. Kichik va o'rta biznes subyektlariga bosqichma-bosqich segmentatsiya strategiyasini joriy etish tavsiya etiladi. Dastlab oddiy demografik va geografik segmentatsiyadan boshlash, keyinchalik psixografik va xulq-atvoriga asoslangan segmentatsiyaga o'tish maqsadga muvofiq.

2. Raqamli vositalardan foydalanishni kengaytirish lozim. Ijtimoiy tarmoqlar analitikasi va CRM tizimlari segmentatsiya samaradorligini oshiradi.

3. Fokuslanish strategiyasini qo'llash tavsiya etiladi. Cheklangan resurslarga ega KOMlar uchun keng bozorni qamrab olishga urinish o'rniga, muayyan nish segmentga fokuslanish samaraliroq natijalar beradi.

4. AI asosidagi segmentatsiya vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Dastlab oddiy tahlil vositalaridan boshlash, keyinchalik murakkab mashina o'rganish algoritmlariga o'tish tavsiya etiladi.

5. Mijoz ma'lumotlari bazasini shakllantirish va boshqarish tizimini joriy etish zarur. Samarali segmentatsiya sifatli va to'liq ma'lumotlarga tayanadi, shuning uchun ma'lumotlarni to'plash va saqlash tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida O'zbekiston korxonalari bo'yicha birlamchi empirik tadqiqotlar o'tkazish, segmentatsiya strategiyalarining milliy kontekstda samaradorligini baholash va soha bo'yicha differentsiatsiyalangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy yo'nalishlar sifatida belgilanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Arnett, D.B. (2024). Market segmentation strategy, target markets, and competitors: a resource-advantage theory perspective. *Journal of Marketing Management*, 40(13-14), 1269-1285. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/0267257X.2024.2391367>
- Hunt, S.D. & Arnett, D.B. (2004). Market Segmentation Strategy, Competitive Advantage, and Public Policy: Grounding Segmentation Strategy in Resource-Advantage Theory. *Journal of Macromarketing*, 24(4), 267-282. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S144135820470083X>
- McKinsey & Company. (2023). The future of personalization—and how to get ready for it. <https://www.mckinsey.com/capabilities/growth-marketing-and-sales/our-insights/the-future-of-personalization-and-how-to-get-ready-for-it>
- Adobe & Marketing AI Institute. (2024). The State of AI in Marketing Report. <https://www.marketingaiinstitute.com/>
- Khilola, Y. & Jibril, A.B. (2024). A Framework of Marketing Strategy for Small and Medium Business Growth in Uzbekistan. *International Journal of Entrepreneurship*, 28(S3), 1-35. <https://www.abacademies.org/articles/a-framework-of-marketing-strategy-for-small-and-medium-business-growth-in-uzbekistan-16774.html>
- Hanlon, A. (2024). STP marketing: The Segmentation, Targeting, Positioning model. *Smart Insights*. <https://www.smartinsights.com/digital-marketing-strategy/customer-segmentation-targeting/segmentation-targeting-and-positioning/>
- Datta, S. (2024). STP Marketing: The Segmentation, Targeting, Positioning Model. *PW Skills*. <https://pwwskills.com/blog/stp-marketing/>
- Amati, F. (2024). Marketing Segmentation Targeting and Positioning. *Amati and Associates*. <https://www.amati-associates.com/marketing-segmentation-targeting-and-positioning/>
- Hafez, M. (2023). Pioneering Perspectives: Strategies and Considerations in Market Segmentation and Targeting. *SSRN Electronic Journal*. [https://papers.ssrn.com/sol3/Delivery.cfm/SSRN\\_ID4802226\\_code6681990.pdf?abstractid=4802226](https://papers.ssrn.com/sol3/Delivery.cfm/SSRN_ID4802226_code6681990.pdf?abstractid=4802226)
- Clarke, A.H. & Freytag, P.V. (2024). Revisiting the strategic role of market segmentation: Five themes for future research. *Industrial Marketing Management*, 122, A1. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0019850124001202>
- Mora Cortez, R., Clarke, A.H. & Freytag, P.V. (2024). B2B market segmentation – An analysis of current practices and their implications. *Journal of Business Research*, 187. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0148296324006489>
- Porter, M.E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance*. Free Press. <https://www.ifm.eng.cam.ac.uk/research/dstools/porters-generic-competitive-strategies/>



13. Stefan, S., Karahan, G. & Gümüş, M. (2023). A Review of Porter's Generic Strategies. Social Science Studies Journal, 9(5). <https://sssjournal.com/files/sssjournal/e5935340-8b65-4cf6-a1c1-cf266026257d.pdf>
14. Pulaj, E. et al. (2020). Linking Porter's generic strategies to firm performance. Future Business Journal, 6(3). <https://link.springer.com/article/10.1186/s43093-020-0009-1>
15. Bhagat, A., Bhandari, P., Yadav, A.L. & Talwandi, N.S. (2024). AI-Powered Customer Segmentation For Marketing. SSRN Electronic Journal. [https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=4811907](https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4811907)
16. Consalnsights. (2024). AI in Customer Segmentation Market Size, Market Share, Companies & Forecast Up To 2033. <https://www.consainsights.com/reports/ai-in-customer-segmentation-market>
17. SALESmanago. (2024). Top 10 eye-opening statistics about hypersegmentation you have to know in 2024. <https://blog.salesmanago.com/marketing-and-business/top-10-mind-blowing-statistics-about-hyper-segmentation-you-have-to-know-in-2021/>
18. Cap Gemini. (2023). Hyper-segmentation: Advanced and real-time customization of offerings, content, and customer experiences. Capgemini Research Institute.
19. Harvard DCE Professional & Executive Development. (2025). AI Will Shape the Future of Marketing. <https://professional.dce.harvard.edu/blog/ai-will-shape-the-future-of-marketing/>
20. DemandSage. (2024). 76 Personalization Statistics: Facts & Trends. <https://www.demandsage.com/personalization-statistics/>
21. World Bank. (2024). Uzbekistan Overview: Development news, research, data. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>
22. TGM Research. (2024). How to conduct market research projects in Uzbekistan. <https://tgmresearch.com/uzbekistan-how-to-conduct-market-research-best-practices.html>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>